

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, "Mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi" kafedrasining q.x.f.f.d (PhD) assistenti Sh.B.Shamsiyevaning "Chorvachilik mahsulotlarini sensorik baholash" fanidan, "Kolbasa mahsulotlarini organoleptik baholash" mavzusidagi ochiq darsining ishlanmasiga


TAQRIZ

Mazkur laboratoriya ishlanmasi talabalarda "Kolbasa mahsulotlarini organoleptik baholash" sifatini nazorat qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Mavzu o'quv dasturiga to'liq mos keladi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi zamonaviy talablarni qamrab oladi. Ishlanmada laboratoriya mashg'ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ishni bajarish tartibi aniq belgilangan. Muallif tomonidan organoleptik tahlilning barcha bosqichlari (tashqi ko'rinish, kesim, konsistensiya, hid va maza) tizimli ravishda yoritilgan. Metodik ko'rsatmalar sodda va tushunarli tilda bayon etilgan. Nazariy bilimlar bevosita laboratoriya tajribalari va GOST standartlari (masalan, GOST 23670-2019) bilan bog'langan. Mashg'ulotda tahlil bayonnomalaridan foydalanish va muammoli vaziyatlarni (texnologik nuqsonlarni aniqlash) tahlil qilish nazarda tutilgan. Nazorat savollari va test topshiriqlari talabalarning bilim darajasini obyektiv baholash imkonini beradi. Test savollari, vazifa va aqliy hujum savollari, adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Sh.B.Shamsiyevaning "Kolbasa mahsulotlarini organoleptik baholash" mavzusidagi laboratoriya ishlanmasi o'quv-metodik talablarga to'liq javob beradi deb hisoblayman va uni o'quv mashg'ulotiga foydalanish uchun tavsiya qilaman.

"Mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi" kafedrasida dotsent, k.f.n.

A.X. Yusupov



Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, "Mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi" kafedrasining q.x.f.f.d (PhD) assistenti Sh.B.Shamsiyevaning "Chorvachilik mahsulotlarini sensorik baholash" fanidan, "Kolbasa mahsulotlarini organoleptik baholash" mavzusidagi ochiq darsining ishlanmasiga

TAQRIZ

Tanlangan dars mavzusi fan dasturi va fanning ishchi o'quv rejasiga mos keladi, mashg'ulot qo'llanmasi yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda uslubiy tomondan to'g'ri taqdim etilgan. Dastlab laboratoriya darsi mavzusi va rejasi, uning maqsadi va vazifalari, keyin esa uni nazariy ma'lumotlar keltirilgan, lekin laboratoriya ishini amaliy bajarish tartibi ko'rsatib berilmagan. Bunda mashg'ulot qo'llanmasi o'qitishning pedagogik texnologiyasiga asosan to'g'ri keladi, chunki unda o'quv faoliyati natijalari ko'rsatilgan.

Ushbu laboratoriya mashg'uloti ishlanmasi "Kolbasa mahsulotlarini organoleptik baholash" zamonaviy oziq-ovqat xavfsizligi talablariga to'liq mos keladi. Kolbasa mahsulotlarining sifatini tezkor (ekspress) baholashda organoleptik usullarni mukammal egallash bo'lajak mutaxassislar uchun juda muhimdir. Laboratoriya ishi mantiqiy ketma-ketlikda tuzilgan. Ishlanmada darsning maqsadi, zaruriy jihozlar, davlat standartlari (GOST) va amaliy bajarish bosqichlari aniq ko'rsatilgan. Ayniqsa, talabalar uchun tahlil bayonnomasi (protokol) va sifat ko'rsatkichlari jadvalining berilishi mashg'ulotning ilmiy-metodik saviyasi yuqoriligidan dalolat beradi. Tashqi ko'rinishdan boshlab, ta'm va hidni aniqlashgacha bo'lgan barcha organoleptik bosqichlar qamrab olingan. Ishlanmada nazorat savollari va muammoli vaziyatli topshiriqlar (keysar) kiritilgani talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradi. Mashg'ulot amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan. Ishlanmada keltirilgan tahlil usullari talabalarda kolbasa mahsulotlarining yashirin nuqsonlarini (rang o'zgarishi, konsistensiya buzilishi, begona hidlar) aniqlash bo'yicha professional ko'nikmalarni shakllantiradi.

Sh.B.Shamsiyevaning taqdim etilgan laboratoriya mashg'uloti ishlanmasi talablar darajasida bajarilgan, metodik jihatdan to'g'ri shakllantirilgan. Mazkur ishlanmani o'quv jarayonida va ochiq dars mashg'ulotlarida foydalanishga tavsiya etaman.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Servis" kafedrasida dotsent, t.f.n.

I.X. Shukurov

